

## MAKTABGACHA TALIMNI BOSHQARISHNING AXBOROT XIZMATI

Kazakbayeva Gulshan Ismatullayevna

Samarqand viloyati Payariq tumani 48-DMTT direktori

### Annotatsiya

*Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish, o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakkiali hamda usullarini joriy etishga qaratilgan e’tabor haqida so‘z boradi.*

### Kalit so‘zlar

*ta’lim tizimi, jarayon, muassasa, takomillashtirish, kengaytirish, mustahkamlash, e’tabor, ta’lim dasturi, rivojlantirish.*

### Аннотация

*В данной статье речь пойдет о коренном реформировании системы дошкольного образования, внедрении в учебно-воспитательный процесс передовых педагогических и информационных технологий, воспитании здорового и всесторонне развитого подрастающего поколения, акцентировании внимания на внедрении в учебно-воспитательный процесс эффективных форм и методов обучения и воспитания.*

### Ключевые слова

*система образования, процесс, учреждение, совершенствование, расширение, укрепление, внимание, образовательная программа.*

### Annotation

*this article will talk about the radical reform of the preschool education system, the introduction of advanced pedagogy and information technology into the educational process, the healthy and comprehensive adult development of the growing generation, the introduction of effective forms and methods of education and training in the educational process.*

### Keywords

*educational system, process, institution, improvement, expansion, consolidation, honors, educational program, development.*

Maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarmi har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaliviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida:

-ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimining joriy etilishini ta’minalash;

-ta’lim-tarbiya jarayonida, maktabgacha tarbiya tizimining pedagog va rahbar xodimlari tarkibini o‘qitish jarayonida foydalanish hamda turli telekommunikatsiya kanallari orqali tarqatish uchun media-kontent tayyorlash va ishlab chiqarish;

-maktabgacha ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallarni tayyorlash va ishlab chiqarish;

-maktabgacha yoshdagagi bolalarni erta rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taddiqotlar o‘tkazish;

-maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

-maktabgacha ta’lim tizimiga joriy etilayotgan ta’lim usullari va dasturlarini tahlil qilish va samaradorligini baholash;

Shu o‘rinda ta`kidlash joizki, maktabgacha ta`lim tizimini isloh qilishga bo`lgan e`tabor kun sayin oshib bornmoqda.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim tizimi uzlucksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassislar va o‘qituvchilarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson barcha ma’lumotlar va ma’lumotlarning 70 foizini besh yoshga to’lgunga qadar oladi. Mana shu faktning o‘zi, bolalarimizning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiya va ta’lim qanchalik muhimligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalari maktabgacha yoshdagagi bolalarni ijobjiy ijtimoiylashtirish, ularning har tomonlama shaxsiy, ma’naviy-axloqiy va bilimni rivojlantirish, maktabgacha yoshdagagi tegishli faoliyat turlari asosida ijodiy qobiliyat va tashabbuskor xulq-atvor profilini shakllantirish, yosh qiziqishlari sohasida kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish kabi shart-sharoitlarni yaratish bilan tavsiflanadi. Ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachi pedagoglar va rahbarlariga bo‘lgan talabni oshirish zarurligini belgilaydi. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirish yo’llari va vositalani aniqlash va ulardan foydalanish hamda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan holda yondashish zarurligini ilgari suradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyati boshqa ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonidan tubdan farq qiladi.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilmoqda:

- 1) maktabgacha ta’lim sohasida;
- 2) umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- 3) oliy ta’lim;
- 4) oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Demak, amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida boshlanishi ham bugungi kunda ushbu sohaga alohida e’tibor berilayotganligidan darak bermoqda. Bugungi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Mazkur sohaga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunni keltirishiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o‘xhash masalalar belgilab qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari va tarbiyalanuvchilarini zamonaviy hisobga oladigan “Bolalar bog‘chasi” maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimini takomillashtirish loyihasi ishlab chiqildi va taqdimot etildi.

“Bolalar bog‘chasi” maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimini takomillashtirish loyihasi quyidagi imkoniyatlarga ega:

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari shtatlar jadvalini shakllantirish va xodimlarning ish vaqtini, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning kelib ketishini hisobga olish bilan bog‘liq jarayonlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar va idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda avtomatlashtirish;

-maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari va tarbiyalanuvchilarining yagona bazasini shakllantirish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining ish vaqtini va tarbiyalanuvchilar davomatini real vaqt rejimida monitoringini ta’minalash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi oziq-ovqat xarajatlarini avtomatik hisobga olish;

-tahlil o‘tkazish va lavozimlar bo‘yicha kadrlar yetishmovchiligin;

aniqlash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kadrlar salohiyati haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarining dastlabki ma’lumotlari (quvvati, hududi, bino va inshootlar maydoni va boshq.) asosida shtatlar jadvalini avtomatik ravishda shakllantirish kabi bir qator vazifalar qo`yildi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

## ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1.Ёзиева У., Абдиева Ф. Maktabgacha ta’lim tashkiloti samaradorligini oshirish

2.Xaliloyevna S. U. MAKTABGACHA TALIMDAGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. - 2023. - T. 2. - №. 13. - C. 79-82